

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2024, № 2 (4)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР

Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES

Scientific journal

ТОШКЕНТ-2024

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Академик

Ўзбекистон Миллий университети

Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Холиқулов Ахмад Баймахаматович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Убайдуллаева Барно Машрабжонова
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Сиддиков Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Нарбеков Абдикамил Вафаевич
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Замонов Акбар Тургинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), профессор
Тошкент халқаро Кимё университети

Кандахаров Анваржон Хасанович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Холиқулова Шахноза Боймухамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Навоий Давлат педагогика институти

Нормуродов Дильмурод Рахматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети

Алиназарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Усаров Умид Абдумавлянович
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети

Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Галиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

1. Адилов Аброр Анварович СОВЕТ ХОКИМИЯТИНИНГ ИЛК ДАВРИДА ТУРКИСТОН ЎЛКАСИДА АМАЛГА ОШИРГАН ДИНИЙ СИЁСАТИДАГИ ВАКФ МАСАЛАСИ	4
2. Abduraxmonova Kamolaxon Ravshanjon qizi TIBBIYOT ANTROPOLOGIYASI O'RGANILISH TARIXSHUNOSLIGI	20
3. Бахранов Шерзад Таштурсунович., Сирлиев Эркин Назарович ИЗ ИСТОРИИ ТАМОЖЕННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РУССКО-СРЕДНЕАЗИАТСКОЙ ТОРГОВЛЕ	34
4. Замонов Акбар Тургинович ШАЙБОНИЙ АБДУЛЛАХОН ШАХСИЯТИ ВА УНИ ЎРГАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ	45
5. Qodirova Ra'no Mamirjonovna O'ZBEKISTON SSR MAKTABLARIDA 1930-YILLARNING IKKINCHI YARIMIDA TARIX FANINI O'QITILISHI	60
6. Maxmudova Muazzamxon Sultonmaxmudovna TEMURIYLAR SALTANATIDA SUG'ORISH TIZIMI MASALALARINI ROSSIYA IMPERIYASI VA SOVET DAVRI MANBALARIDA YORITILISHI	70
7. Нормуродов Дилмурод Рахматуллаевич XV – XVI АСРНИНГ БОШЛАРИГА ОИД “ЯНГИ САНГАНАК” ХАЗИНАСИДАГИ САМАРҚАНД ТАНГАЛАРИ ХУСУСИДА	79
8. Рахманова Одинахон Равшанбековна САММАРСКИЙ ПЕРИОД ВО ВРЕМЕНА ПРАВЛЕНИЕ ХАЛИФОВ АЛЬ-МУТАСИМА И АЛЬ- ВАСИКА	93
9. Сиддиков Равшан Бердимуратович ОЛИЙ ТАЪЛИМНИНГ ГЛОБАЛЛАШУВИ ТАРИХИНИ ЎРГАНИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ	101
10. Примов Мухиддин Омонович ЎЗБЕКИСТОНДА КАРТОГРАФИЯ МУТАХАССИСЛИКЛАРИ ОЧИЛИШИ ВА КАРТОГРАФ КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР	118
11. Hakimova Shoiri Sag'dullayevna O'ZBEKISTON ELEKTROENERGETIKA SANOATIGA XORIJY SARMOYALARNING JALB ETILISHI	135
12. Hakimova Saida Baxtiyorovna O'TOSHKENT BEKLIGI T. BURNASHEV VA M.POSPELOV NIGOHIDA	150
13. Shamsiyeva Maxfuzaxon Xuja qizi HAZRATI IMOM MAJMUASIGA TARIXIY SAYYOHAT	156
14. Юнусова Хуршида Эркиновна ЎЗБЕКИСТОН ИЖТИМОЙ ҲАЁТИГА СОВЕТ МАФКУРАГА МОСЛАШТИРИЛГАН ЯНГИЧА УРФ ОДАТЛАРНИНГ КИРИБ КЕЛИШИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР	162

Xakimova S.B.

Tayanch doktorant

Farg‘ona davlat universiteti

xakimovasaida28@gmail.com

TOSHKENT BEKLIĞI T. BURNASHEV VA M.POSPELOV NIGOHIDA ANNOTATSIYA

Maqolada 1800-yilda Toshkent bekligiga Rossiyadan tashrif buyurgan tog‘-
kon sanoati mutaxassislari T.Burnashev va M.Pospelovlarning Toshkent va uning
atroflari haqida qoldirgan esdaliklaridagi ma’lumotlar tahlil etilib, boshqa rus
manbalari bilan silishtirilgan.

Kalit so‘zlar: Toshkent bekligi, T.Burnashev, M.Pospelov, Yunusxo‘ja,
F.Nazarov, S.Klyucharev.

Хакимова С. Б.

Базовый докторант

Ферганский государственный университет

xakimovasaida28@gmail.com

ТАШКЕНТСКОЕ БЕКСТВО В СВЕДЕНИЯХ Т. БУРНАШЕВА И М. ПОСПЕЛОВА АННОТАЦИЯ

В статье анализируются и сопоставляются с другими русскими
источниками сведения о Ташкенте и его окрестностях, оставленные
специалистами горного дела из России Т.Бурнашевым и М.Поспеловым,
посетившими Ташкентское бекство в 1800 году.

Ключевые слова: Ташкентское бекство, Т.Бурнашев, М.Поспелов,
Юнусходжа, Ф.Назаров, С.Ключарев.

Xakimova S. B.
Doctoral student
Fergana state university
xakimovasaida28@gmail.com

TASHKENT FAILURE IN THE INFORMATION OF T. BURNASHEV AND M. POSPELOV

ABSTRACT

The article analyzes and compares with other Russian sources information about Tashkent and its environs, left by mining specialists from Russia T.Burnashev and M.Pospelov, who visited the Tashkent region in 1800.

Key words: Tashkent domain, T.Burnashev, M.Pospelov, Yunuskhodzha, F.Nazarov, S.Klyucharev.

KIRISH

1784-yilda tashkil topgan Toshkent bekligi turli davlatlar bilan savdo aloqalarini olib borgan. Shu jumladan, Rossiya imperiyasi ham O'rta Osiyo sharqiy hududlari bilan savdo aloqalarini Toshkent orqali yo'lga qo'ygan edi. Ushbu aloqalar imperiyaning Sibir hududini Toshkent bilan bog'lovchi yo'llar orqali olib borilgan. Bu davrda Toshkent hokimi bo'lgan Yunusxoja o'z mulkini har tomonlama rivojlantirishdan manfaatdor edi. Xususan, u Toshkent atroflaridagi tog'larda beklik iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin bo'lgan qazilmalar mavjudligini taxmin qiladi. Shu sababdan u beklikda konchilikni rivojlantirish istiqbollarini aniqlash uchun Sibir ma'muriyatidan mutaxassislar jo'natishni so'raydi. Bunga javoban, 1800-yilda shixtmeysterlar (tog'-kon sanoati mutaxassislari) Timofey Burnashev va Mixail Pospelovlar Toshkentga keladi. Shu bilan birga T.Burnashev va M.Pospelovga diplomatik topshiriqlar ham berilgan bo'lib, ular imperiya kansleri A.A.Bezborodkoning Sibir chizig'i boshlig'iga jo'natgan xatida ifoda etilgan. Unda kansler "Missiya u yerga yo'lida, bildirmasdan, u hududning holatini, shuningdek, u joy hukmdori bizdan ularni himoyaga olishni so'ragan taqdirda qancha odamni sig'dirishi va oziq-ovqat bilan ta'minlashi mumkinligini o'rganish uchun ham" jo'natilayotganini ta'kidlaydi [2, 272]. Demak, ushbu mutaxassislar ham asosiy vazifasidan tashqari Rossiya

hukumatiga aygʻoqchilik qilish topshirigʻini ham bajargan. Bu hol yana bir bor oʻsha davrda deyarli barcha savdogarlarning ikki tomonlama faoliyat olib borganini isbotlaydi.

T.Burnashev va M.Pospelovning safari tafsilotlari “Вестник Русского Географического общества” jurnalining 1851-yil sonida nashr etilgan. Ular ikki qismdan iborat boʻlib, birinchi qismida qozoq dashtlari va ularning aholisi haqida maʼlumotlar berilgan. Ikkinchi qismi esa Toshkent mulklarining tavsifiga bagʻishlangan boʻlib, Toshkent shahrining devori, uylari, koʻchalari, bozorlari, ariqlari, masjidleri batafsil tasvirlangan. Toshkentdan tashqari Chimkent va Turkiston shaharlari, shuningdek, Quramadagi oʻnta qishloq haqida maʼlumot beriladi [4, 29].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Toshkent shahrining tavsifi deb nomlangan toʻrtinchi bobda shahar devorining aylanasi 18 vyorst (1 vyorst – 1066,781 m), balandligi 26 futgacha (1 fut – 0,3048 m), eni pastki qismida 6, yuqorida 3 futgacha borishini yozadi [3, 148]. Ushbu maʼlumotni Toshkentga keyinchalik kelgan elchilarning maʼlumotlariga solishtirsak, F.Nazarov devor uzunligini 15, N.Potantin 20 vyorst deb bergan. Ularning barchasi uzunlikni chamalab oʻlchaganini eʼtiborga olsak, demak, shahar devorining uzunligi XIX asrning birinchi yarmida 15-20 vyorstni tashkil etgan.

T.Burnashev va M.Pospelov shahar devorida 6 ta darvoza bor, deb maʼlumot beradi. Umuman olganda, Toshkent darvozalari soni haqida turli davrlarda kelgan sayyohlar turlicha raqamlarni keltiradi. Ularning soni Nurmuhammad Mulla Alimovda (1735) 32 ta, K.Millarda 8ta, Sh.Arslonovda (1741) 12 ta, F.Nazarovda (1813-1814) 12 ta, Yu.Skaylerda (1873) 12 ta, N.Mayevda (1876) 12 ta, M.A.Terentyevda (1876) 13 ta, A.K.Geynsda (1898) 12 ta deb beriladi. Muhammad Solih “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida ularning soni 4 ta boʻlgani va ularning orasidagi masofani shaxsan qadamlab chiqqanini maʼlum qilgan holda, asarning turli joylarida 20dan ortiq darvoza nomlarini tilga oladi. Lekin keltirilgan darvoza nomlari bir darvozaning turli davrlardagi nomlaridir[6, 29]. 1852-yilda Toshkentda boʻlgan rus savdogari S.Klyucharev shahar darvozalari sonini 12 ta

deb beradi [1, 356]. Fikrimizcha, aksariyat sayyohlar darvozalar sonini 12 ta deb yozib, to'g'ri ma'lumot berishgan.

T.Burnashev va M.Pospelovlar shaharda xonadonlar soni 10 ming, erkak aholi soni 40 ming, deb ma'lumot beradi [3, 149]. F.Nazarov esa hovlilar sonini 20 ming, N.Potantin 2 ming deb beradi. Lekin bu ma'lumotlarning ishonchliligi shubhali, chunki ular aholi bergan ma'lumotlar asosida keltirilgan, mahalliy aholiga esa bo'rttirish xos bo'lgan. N.Potantin esa hovlilar sonini ishonarsiz ravishda oz ko'rsatgan. Bizningcha, Burnashev va Pospelovlarning ma'lumotlari haqiqatga yaqin.

Esdaliklarda Toshkent hokimining qo'shini haqida ham qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi. Ularda yozilishicha, aholi orasida qoraqozonlar bo'lib, qo'shin ulardan tashkil topgan. Ular ikki yuzdan ming kishigacha yetadigan bo'linmalarga ajratilgan. Ular xojalariga xizmat va o'z ro'zg'or ishlarini bajarishdan tashqari zarur bo'lganda doim yurishga tayyor bo'lishlari kerak edi. Ularning soni 6 mingdan oshmagan. Agar vaziyat taqozo etsa, qo'shin har bir xonadondan bir yoki ikki nafar odamni olish yo'li bilan ko'paytirilgan [3, 152]. Mualliflar qo'shinning qurollanishi va jang olib boorish usullarining qoloqligini ta'kidlashadi: "Qo'shinning 1/4 qismida ham miltiqlar yo'q, nayzalar va ayrimlari kamonlar bilan qurollangan. Urushga zambaraklar ham olib boriladi, lekin ulardan yaxshi foydalana olisholmaydi. Bundan tashqari, tuyalarga bog'langan yog'och tagdonlarga o'rnatiladigan va cho'yan o'q otadigan yuztagacha miltiqlari bor. Jangda tartibsiz harakat qilishadi. Kim qo'rqmasroq harakat qilsa, o'sha g'olib bo'ladi" [3, 153], deb bergan ma'lumotlariga ko'ra, o'sha davrda O'rta Osiyoda harbiy ish o'rta asrlardagidan ham ayanchliroq ahvolda ekanligini bilish mumkin.

Toshkentdagi soliq tizimiga to'xtalib, soliqlarni shaharning har bir qismiga tayinlangan oqsoqollar yig'ishi, soliqlarning soni va yig'ib olish vaqti belgilanmagani, hukmdor xarajatlari uchun har bir uydin yoki unda yashovchi votini bor har kishidan (qoraqozonlardan tashqari) hukmdor belgilagan miqdorda soliq yig'ilgan. Soliq to'lovchilar bir oyda 5 rupiyadan 10 rupiyagacha, ba'zida undan ham ko'p miqdorda olingan. Bir rupiya Rossiya pulida 20 tiyinga teng

bo'lgan. Dehqonchilik bilan shug'ullanuvchilar hosilning 1/10 qismini bergan. Oila qurayotgan har bir shaxs 25 rupiya to'lishi kerak bo'lgan [5, 32]. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Toshkent aholisi ham bir necha soliqlarni to'lab borgan va ularning aniq belgilanmagani suiste'molliklarni ham keltirib chiqargani haqiqatdan yiroq emas. Ushbu ma'lumot F.Nazarovning "Toshkentliklar baxtli hayot kechirib, soliq to'lamaydi" degan gaplarining subyektiv ekanligini isbotlaydi.

Pul muomalasi haqida Burnashev va Pospelov ichki savdoda oltin va kumush tangalar yo'qligi, mis tangalarning qiymati esa pastligini yozadilar. Mahalliy tangalar rupiya deb atalgani F.Nazarovda ham uchraydi, lekin ular kumush tangalar bo'lgan. Shundan va soliqlarning rupiya ko'rinishida olinganligidan kelib chiqib, Pospelov va Burnashevning Toshkentda kumush tangalar bo'lmagan, degan fikriga qo'shila olmaymiz.

T.Burnashev va M.Pospelov aholining mashg'ulotlarini tasvirlab, asosan dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanishlari, donli ekinlar mart va sentabrda ekilishini yozadi [5, 33]. Donli ekinlardan tashqari paxta yetishtirilishi, undan to'qilgan matolar yoki tolaning o'zi Rossiyaga chiqarilishi, ipakning kam ishlab chiqarilishi haqida ma'lumot berishadi. Savdo masalasi haqida mualliflar shunday fikr bildiradiki, agar Toshkentga qo'shni davlatlarning xayruxohligi va yordamisiz bu yer bilan savdo rus savdogarlariga katta foyda keltirmaydi [3, 154]. Demak, Toshkentning qo'shni davlatlar, ayniqsa, Buxoro bilan munosabatlarining yaxshi emasligi Rossiya manfaatlariga ham to'g'ri kelmagan. Bu esa keyinchalik Toshkent savdo ishlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin edi.

XULOSA

Shunday qilib, M.Pospelov va T.Burnashevning esdaliklari Toshkent bekligining XVIII asr oxiri – XIX asr dastlabki yillaridagi ahvoli haqida qimmatli ma'lumotlarni berib, ushbu esdaliklar boshqa manbalardagi ma'lumotlarni to'ldirish va aniqlik kiritish uchun xizmat qiladi.

IQTIBOSLAR / СНОСКИ / REFERENCES

1. Вельяминов-Зернов В.В. Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммад Али до Худаярхана. – Спб., 1856. – С. 356.
2. Гуломов Х.Г. Дипломатические отношения государств в Средней Азии с Россией в XVIII - первой половине XIX века. –Т.:Фан, 2005. – С. 281.
3. Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках. Т.: Фан,1988. – С. 148.
4. Маслова О. Обзор путешествий и экспедиций в Среднюю Азию. Материалы к истории изучения Средней Азии. Ч.1.1715-1856. Труды САГУ, 1955. – С. 29.
5. Поездка Пospелова и Бурнашева в Ташкент в 1800 году // Вестник Русского Имп. Географического Общества. Ч. 1. Отд. VI. Кн. 1. Спб., 1851. – С. 32.
6. Султонов Ў. Тарихи жадидаи Тошканд // Moziydan sado. – 2006. - №3. – Б. 29.